

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2024-11/4

**Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

<i>Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.</i> <i>Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.</i> <i>Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.</i> <i>Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.</i> <i>Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.</i> <i>Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.</i> <i>Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.</i> <i>Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.</i> <i>Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.</i> <i>Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.</i> <i>Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.</i> <i>Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.</i> <i>Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.</i> <i>Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumaniyozov Zoxid Otabayevich, f.f.n., dos.</i> <i>Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.</i> <i>Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.</i> <i>Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc</i> <i>Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.</i> <i>Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.</i> <i>Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.</i> <i>Lamers Jon, q/x.f.d., prof.</i> <i>Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.</i> <i>Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.</i> <i>Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.</i> <i>Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.</i>	<i>Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.</i> <i>Pazilov Abdvayeyit, b.f.d., prof.</i> <i>Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.</i> <i>Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.</i> <i>Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.</i> <i>Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.</i> <i>Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.</i> <i>Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.</i> <i>Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.</i> <i>Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.</i> <i>Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.</i> <i>Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.</i> <i>Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.</i> <i>Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.</i> <i>Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.</i> <i>Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.</i> <i>Tojibayev Komiljon Sharobidinovich, b.f.d., akad.</i> <i>Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.</i> <i>Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.</i> <i>Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.</i> <i>Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.</i> <i>Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.</i> <i>Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.</i> <i>O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.</i> <i>O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.</i> <i>Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.</i> <i>Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.</i> <i>Xudayberganova Durдона Sidiqovna, f.f.d.</i> <i>Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.</i>
--	--

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№11/4 (120), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 421 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

МУНДАРИЖА
FILOLOGIYA FANLARI

Abdujalilova M.A. Diachrony of terms for household items in english and uzbek languages	7
Abdullayeva D.B. The evolution of english literature: a journey through periods and movements	9
Abdullayeva Sh.A. Jurnalistikada axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik	12
Abdullayeva G.A. Mediadiskursning lingvokognitiv masalalari	14
Abrayeva Sh.E. Lotincha va yunoncha morfemalarning differensial taqsimlovchi xarakteristikalari va ularning nutqda qo'llanilishi	17
Adilova F.Sh. Xayriddin Sultonning "Ishonch telefoni" qissasida zamonaviylik va badiiy til	19
Adxamova Sh. Qadimgi ingliz tilidagi o'lchov birliklari leksemalarini tahlil qilish	21
Ahmedova M. Irrigatsiya va melioratsiya sohasiga doir birikmali va murakkab so'z shaklidagi terminlar tavsifi	24
Akhmedova S.H. The significance of antroponyms and toponyms in uzbek and english fairy tales: a study of Cinderella, Snow White, Rapunzel, and Susanbil	27
Allayorova Sh.P. Ingliz va o'zbek tillarida perifrazalarning lingvopragmatik xususiyatlari	30
Anorqulova O.N. "Oila" konsepti doirasiga kiruvchi maqollarning kognitiv tahlili	33
Aslonov F.B. Ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlarda nishonlanadigan bayramlar, ularga oid leksik birliklar hamda ularning ifodalanishi	35
Azimova D.M. Tilshunoslikda buxgalteriya hisobi va audit terminlarining ilmiy- nazariy qarashlari	39
Bobojanova Sh.Y. Xorazm viloyatidagi o'g'uz shevalari gastronomik leksikasi- tadqiqot obyekti sifatida	42
Boboyeva M.X. So'z birikmasining polifunksional mohiyati	45
Boymatova D.B. Hikmatli so'zlarda aksiologik konsept ifodasi	49
Burxonov B.B. O'zbek tilshunosligida kasbiy diskurs tushunchasi tavsiflari	52
Buzrukova M. Tarjima madaniy transfer sifatida: xalqaro turistik diskursda tarjimaning kommunikativ-pragmatik paradigmasi	54
Dadabayeva F. XXI asr o'zbek adabiyotida qodiriyshunoslik masalalarining o'rganilishi	58
Dalieva M.X. Turkiston ta'lim tizimida jadidlarning ahamiyati: mahalliy va xorijiy adabiyotlarni tahlili	61
Do'simov Z. O'zbek tili leksikasi shakllanishida tarixiy-etimologik qatlamlarning o'rni masalasi	64
Ergashev M.R. Zamonaviy terminografiyaning o'ziga xos jihatlari	66
Eshankulova Sh.X. O'zbek va turk xalqlarining mehmondo'stligini ifodalovchi maqollarning lingvokognitiv tahlili	69
Eshmatov R.T. Z.Freyd nazariyasi va uning badiiy asarlarda aks etishi	73
Eshmuratova D.U. Religionimik birliklarning tillararo tasnifi	75
Eshmurodov M. "Bek" davlatchilik atamasining tarixiy ildizlari	78
G'ulomova R. O'zbek qarg'ishlarning sotsiolingvistik tahlili	81
Haydarov A.A., Tosheva F.B. National-cultural similarities and differences in english and uzbek fairytales	86
Haydarov A.A. Urg'uning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari	89
Haydarova N.A. Tarjima jarayoniga diskursiv yondashuv xususida	92
Ibragimova N.I. Paremies and their stages of research in linguistic	96
Jabborova F.M., Mamatova F.M. The concept of «hospitality» as a subject of linguocultural research	99
Jabborova Z. The main usage of nonverbal expressions in fiction work	102
Jalilova L.J., Inoyatova Z. A variety of Genre experiments in the work of B.Shaw "House where hearts break"	105

5. Charles Perrault, Mother Goose Tales, 1697, Claude Barbin, p. 34.
6. Lewis Carroll, Alice's Adventures in Wonderland, 1865, Macmillan, p. 63.
7. George MacDonald, The Princess and the Goblin, 1872, Strahan & Co., p. 129.
8. Oscar Wilde, The Happy Prince and Other Tales, 1888, David Nutt, p. 88.
9. J.M. Barrie, Peter Pan, 1911, Hodder & Stoughton, p. 45.
10. Beatrix Potter, The Tale of Peter Rabbit, 1902, Frederick Warne & Co., p. 24.
11. Eleanor Farjeon, The Little Bookroom, 1955, Oxford University Press, p. 142.
12. Rudyard Kipling, The Jungle Book, 1894, Macmillan, p. 77.
13. C.S. Lewis, The Lion, the Witch and the Wardrobe, 1950, Geoffrey Bles, p. 54.
14. Aesop, Aesop's Fables, 1484, William Caxton, p. 12.
15. Edith Nesbit, The Enchanted Castle, 1907, T. Fisher Unwin, p. 93.
16. Abdulla Qahhor, Fairy Tales, 1958, Gafur Gulom Publishing House, p. 56.
17. Askarovich, H. A. (2021). Expression of connotative meaning in Graphic means International Engineering Journal For Research & Development, 6 (TITFL), 91–94.

UO'K 81'32; 811.512.1

URG'UNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA USLUBIY XUSUSIYATLARI

A.A. Haydarov, prof., Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida urg'uning semantik-grammatik va stilistik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Asosiy e'tibor ingliz va o'zbek tillarida emfatik urg'uning badiiy nutqdagi roliga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fonostilistika, aksentologiya, supersegment, intonatsiya, pauza, urg'u, emfatik urg'u.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантико-грамматические и стилистические особенности акцента в английском и узбекском языках. Основное внимание уделяется роли эмфатического ударения в английском и узбекском языках в художественной речи.

Ключевые слова: фоностилистика, акцентология, суперсегмент, интонация, пауза, ударение, эмфатический акцент.

Abstract. Semantic, grammatical and stylistic features of accent in the English and Uzbek languages are considered in the article. Special attention is paid to the role and stylistic usage of the emphatic accent in the literary speech in the English and Uzbek languages.

Key words: phonostylistics, accentology, supersegment, intonation, pause, stress, emphatic stress.

Tilshunoslikda urg'u supersegment fonetik vositalardan biri bo'lib, nutq jarayoni zanjirini tashkil qilishda muhim rol o'ynaydi. "Urg'u bu chuqur izlanishlarni talab etuvchi ham nazariy ham amaliy jihatdan ahamiyatli bo'lgan qaltis bir hodisadir" [1]. Urg'uning vazifasi delimativlik bilan cheklanmaydi, balki so'zning birligini ta'minlashda va so'zlarning bir biridan prosodik farqini ko'rsatuvchi differensial belgi bo'lib ham xizmat qiladi [2].

Zamonaviy tilshunoslikda urg'uga supersegment hodisa sifatida qarash lozim ekan, u bevosita uslubiy ahamiyat ham kasb etadi [3]. O'zbek tilining urg'usi, uning tabiati, o'rni, ayniqsa uslubiy xususiyatlari haligacha chuqur tadqiq qilinmagan. Ammo bu o'rinda 1947-yilda professor A.G'ulomov tomonidan nashr qilingan "O'zbek tilida urg'u" risolasining nazariy va amaliy jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etish lozim. Unda urg'uning so'z va mantiq urg'ulariga bo'linishi, so'z urg'usining o'zbek tilidagi vazifalari batafsil izohlab berilgan. Bu berilgan izohlar A.G'ulomovning o'ta kuzatuvchanlik qobiliyati bilan jahon ilmiy merosidan chuqur bahramand bo'lgan ulkan ilmiy salohiyatining uyg'unlashuvi natijasidir. Shuning uchun ham eshituv usuli bilan xulosa chiqarganiga qaramay, ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'uning darajalanishi, urg'usiz bo'g'inda unlilarning reduksiyalanishi, urg'u olmaydigan qo'shimchalar va ularning sabablari yuzasidan bayon qilingan fikrlarni keyinchalik eksperimental fonetika bergan materiallar ham to'la tasdiqladi, deb yozadi professor A.Nurmanov [4].

Keyinchalik urg'u va tovush sistemasining o'zaro munosabati haqida professor A.Mahmudov ham atroflicha fikr yuritgan [5]. Shunga qaramay urg'u keng qamrovli fonetik vosita bo'lib, uni

yanada keng va atroflicha tadqiq qilish davrimizning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada urg'uning semantik-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq holda uning uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

O'zbek tilining urg'usi asos e'tibori bilan eksprator (havo oqimining kuchi bilan ifodalanadigan) urg'udir. U shu bilan birga muzikal urg'u bilan aralashishi holatiga ham egadir. Muzikal urg'u (tonning bir xil yuksalishi bilan ifodalanadigan urg'u) so'roq, taajjub kabi ma'nolarni anglatishda ochiq ko'rinadi. Ko'pchilik fonetist turkolog olimlar (N.F.Katanov, N.K.Dmitriyev, V.Radlov) o'zbek tilida urg'u so'zning oxirgi bo'ginida bo'ladi, deb qayd qilganlar. Darhaqiqat, hozirgi o'zbek tilining leksik tarkibiga qarar ekanmiz, undagi asosiy qismning urg'usi oxirgi bo'g'inda keladigan so'zlardan iborat ekanini ko'ramiz. Shu bilan bir qatorda o'zbek tilida urg'u doimiy turg'un o'ringa ega emas. U nutqdagi turli holatlarni aks ettirishda: jahl bilan qattiq gapirishda, jiddiy, kuchli undashlarda turli o'rinlarga ko'chiriladi. Boshqacha aytganda, uning oxiridan boshqa o'ringa ko'chirilishi emotsionallik ottenkasi bilan bog'langandir [6].

Qiyoslayotgan ingliz va o'zbek tillarida so'z tarkibidagi biror bo'g'in yoki gap tarkibidagi biror so'z talaffuzda ajratilib, urg'u berib zarb bilan aytiladi. Bu hol odatda, ovozning ko'tarilishi, cho'ziqlikning ortishi va intonatsion taktning kuchayishi kabi fonetik vositalar bilan ifodalaniladi. Ana shu fonetik vositalar orqali bo'g'in va so'zning ajratilishi natijasida: so'z urg'usi va gap urg'usi hosil bo'ladi. So'z urg'usi semantik uslubiy tomondan so'z ma'nosi va talaffuzini to'g'ri belgilashga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi **olma** so'zining birinchi bo'ginidagi urg'u uni morfologik jihatdan ot turkumi, leksik jihatdan meva lug'aviy ma'noli so'z ekanini ko'rsatadi. Shu so'zning ikkinchi bo'g'inidagi urg'u esa ma'noni tamoman o'zgartiradi: fe'l, harakat ma'nosi ifodalanadi. Xuddi shunday misolni ingliz tilidagi **present** so'zida ham ko'rish mumkin. Ushbu so'zning birinchi bo'g'inidagi unliga tushgan urg'u uning "hozirgi" degan ma'nosini ifodalasa, ikkinchi bo'g'indagi unliga tushgan urg'u esa "sovg'a" manosini anglatadi. Bundan ko'rinadiki, urg'u so'zning lug'aviy ma'nosini ham farqlaydi. Ayni zamonda urg'u shu so'zning to'g'ri talaffuzini ham taqozo etadi. Bunga e'tibor qilmaslik adabiy talaffuz normasini buzadi. Buxoro shevasida urg'u qoidalariga rioya qilmaslik natijasi ko'pincha **olma** so'zi **alma** tarzida talaffuz qilinadi. Bunday holat bir tomondan adabiy normadan chekinish bo'lsa, ikkinchidan badiiy uslubda personajlarning nutqiy xarakteristikasini beradi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin:

Bog'chalarda erkin sayrar qushchamiz,

Hoy bolalar biz ham ozod qushchamiz.

Biz yosh kuchlar- har bir ishda chaqqonmiz,

Keng osmonda uchishda ham qushchamiz.

Birinchi qatordagi qushchamiz so'zi bizning kichik qushimiz; ikkinchi qatordagi qushchamiz so'zi- biz kichik qush bo'lamiz; oxirgi qatorda esa ushbu so'z qush kabi (qadar) miz. Bu ma'no xususiyatlar turli ottenkalar urg'u orqali ifodalanadi. Shu bilan birga she'r ohangining yoqimli bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu holatni ingliz tilidagi quyidagi she'riy parchada ham ko'rish mumkin:

*Hold fast to **dreams**,*

*For if **dreams** die.*

Life is a broken – winged bird,

That can not fly.

*Hold fast to **dreams**,*

*For when **dreams** go.*

Life is a barren filed

Frozen with snow. (Lengston Hughes "Dreams")

Urg'u orqali ma'no o'zgarishida ohang asosiy rol ni o'ynaydi. Bunda yangi so'z hosil bo'lmay, ya'ni so'zning denotativ ma'nosi o'zgarib turli konnotativ ma'nolar hosil bo'ladi, bu esa uslubiy rang- baranglikni vujudga keltiradi. Masalan, kesildi (to'g'ri, odaticha anglash), kesildi (kesatish), kesildi (uqtirish) kabilar. Gap urg'usi turli darsliklarda logik urg'u, intonatsion urg'u terminlari bilan ham ataladi. Bunday urg'u gapdagi so'zni mazmun jihatdan ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Intonatsion urg'u gapdagi hamma so'zlarga tusha olishi bilan birga, u so'zning hamma bo'g'inlariga ham tusha oladi va deyarli hamma holatda saqlanib qoladi. Masalan, Halim ketdi (qoldi emas ketdi),

Halim ketdi (Karim emas Halim ketdi) degan ma'noni bildiradi. Logik urg'u ko'pgina tillarda fikriy jihatdan ahamiyatli bo'lgan elementning kuchli aytilishi bilan bog'liq. Bu kuchayish o'sha elementning so'nggi bo'g'inida o'zining eng yuksak nuqtasiga yetadi. Bu havo oqimining kuchayishi emas, umumiy tonning- ohangning ko'tarilishidir. Logik urg'u biror narsani ta'kidlashda, birini ikkinchisiga zid qo'yishda yoki qofiyani rostdash uchun ham ishlatiladi. Buni ingliz tilidagi quyidagi rifmovkani o'qish jarayonida kuzatish mumkin:

<i>One, two</i>	<i>Pick up sticks.</i>
<i>Buckle my shoe.</i>	<i>Seven, eight</i>
<i>Three, four</i>	<i>Get a sleep at night</i>
<i>Shut the door.</i>	<i>Nine, ten</i>
<i>Five, six</i>	<i>A good fat hen.</i>

Logik urg'u o'z tabiatiga ko'ra grammatik formalar bilan aloqador. Masalan, o'zbek tilida qaratqich va tushum kelishigidagi so'zlar mazmunan birinchi o'rinda bo'lganda logik urg'u olishi bilan birga, ko'pincha o'z belgilarini ham saqlaydi. Belgisiz qo'llangan taqdirda urg'u olmaydi. Nutqqa bunga e'tiborsizlik natijasida mantiqiy uslubiy nuqsonlar paydo bo'ladi. Logik urg'u so'z tartibi bilan ham zich bog'langandir. Odatdagi tartib logik-grammatik va uslubiy talab bilan o'zgaradi, she'riyatda mazmun jihatdan asosiy hisoblangan bo'lak o'z tipik o'rnidan qat'iy nazar logik urg'u olib, har doim misra boshiga chiqariladi:

Shitirladi hovling to'la kuz,
Shitirladi xazonlar jonim. (U.Azim)

Yuqoridagi misolda mantiq urg'usi kesimga tushib ma'no kuchaygan. Lirik asarlarda muallif aytmoqchi bo'lgan fikrni, tasvirni kuchaytirish, ta'kidni aniqlantirishda mantiqiy urg'udan foydalaniladi. Bu o'rinda qofiyaning ahamiyati juda muhim sanaladi. Qofiya so'zlarning urg'uli yoki urg'usiz holatda kelishi bilan ifodalanishi mumkin:

Sweet and low, sweet and low
Wind of the western sea.
Low, low, breathe and blow,
Wind of the western sea.
Over the rolling waters go (A.Tennyson)

Gap bo'laklari o'rnini grammatik almashtirib qo'llash ayniqsa anaforalarda yorqin namoyon bo'ladi:

Yolg'iz menmi ko'klam chog'i yig'lagan,
Yolg'iz menmi har umidda aldangan,
Yolg'iz menmi ko'kragimni tig'lagan,
Yolg'iz menmi sevinch bilan bo'lmagan. (Cho'lpon)

And whizzing and hissing,
And rattling and battling
And gurgling and struggling
And bubbling and troubling and doubting
And rushing and flashing and brushing and gushing (R.Southey)

Ma'noni kuchaytirish uchun logik urg'uli bo'lak ba'zan gap oxirida ham takrorlanadi. Masalan, *Bu gaplarni qo'ying savdodan gapiring savdodan* (so'zlashuvdan). Urg'uning semantik stilistik xususiyatlaridan yana biri uni unli fonemalar bilan yaqindan aloqadorligidir. Bu holatni ingliz tilida ham o'zbek tilida ham uchratish mumkin. Shu o'rinda uslubiy xususiyatga ega bo'lgan emfatik urg'uning nutq ta'sirchanligi bilan bog'liq holatlari haqida ham to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Emfatik urg'u- bu gap tarkibidagi bir so'zning ta'sirchaligini kuchaytirish maqsadida alohida ajratib talaffuz etiladi [7]. Emfatik (hayajon) urg'u gapning biror bo'lagi yoki bo'laklariga so'zlovchining kechinmasi, hayajoni, subyektiv munosabati kabilarning yuklatilganligini ko'rsatuvchi intonatsion qismidir. Uning logik urg'udan farqi shundaki, logik urg'u tinglovchi diqqati qaratiladigan bo'lakni ajratib ko'rsatadi. Emfatik urg'u esa so'zlovchining o'z subyektiv munosabati qaratilgan bo'lakni ajratib ko'rsatish vazifasini o'taydi. Logik urg'u gapda bir bo'lakka tushadi, hatto

gapning ma'lum bir sostaviga ham tushishi mumkin. Logik urg'uda tovush kuchi asosiy o'rinda turgani holda emfatik urg'uda tovush cho'ziqligi asosiy o'rinda bo'ladi [8].

Ingliz tilida keltirilgan quyidagi ikki misrada unli topvushlarni cho'zish natijasida ta'sirchanlik oshib, tovush cho'ziqligi uslubiy vazifa bajaradi. Masalan:

*And failing and crawling and sprawling,
And gleaming, and streaming, and steaming, and beaming.*

Emfatik urg'u ko'proq belgi bildiruvchi so'zlarga tushadi. Masalan, *Oyshaxon qo'ng'ir, tivit ro'molini peshonasiga bostirib o'ragan, bu ozg'in juvon Sattorning xotini ekanini Roziya endi payqadi* (P.Qodirov).

Yuqoridagi misoldagi **qo'ng'ir, tivit, ozg'in** so'zlari eganing aniqlovchisi bo'lib unga emfatik urg'u berilgan. She'riyatda musiqiylikni hosil qiluvchi vositalardan biri emfatik urg'udir. Emfatik urg'u tushgan bo'lak boshqalarga qaraganda balandroq, cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Qofiyaga emfatik urg'uni yuklash uning xushohangligini oshiradi. Shu boisdan emfatik urg'udan zamondosh shoirlarimizdan biri Muhammad Yusuf san'atkorona foydalangan. Shuning uchun ham uning she'rlari oddiy, poetik mazmunli, mayin va erkin kuylanadi. Qofiyali so'zlar emfatik bo'lakka xos cho'ziq talaffuz qilinadi.

*Sen yo suv bo'yiga cho'kkan guloyim,
Seni yo ko'klardan to'kmish xudoyim,
Bulbulning patiday barging muloyim,
Binafsha, binafsha xoksor binafsha.*

“Binafsha” she'ridan olingan parchadagi guloyim, xudoyim, muloyim so'zlari o'zaro ohangdosh bo'lib, musiqiy jarangdorlik hozil qilgan. Xuddi shunday holatni ingliz tilidagi quyidagi she'riy parchada ham ko'rish mumkin:

*What does little birdie say,
In her nest at peep of day.
Let me fly says little birdie,
Mother, let me fly away.*

Ushbu she'riy parchadagi **say, day, away** so'zlari o'zaro qofiyalanib, ularga urg'u tushishi natijasida musiqiy ohangdorlik ta'minlangan.

Xulosa qilganda, urg'u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan fonetik vositalardan biridir. Urg'u vositasida so'zning leksik va grammatik ma'nosi o'zgaradi. Bunday o'zgarish tufayli so'z va gapda qo'shimcha ma'no bo'yog'i hosil bo'ladi. Urg'u vositasida paydo bo'lgan turli xil emotsional-ekspressiv ma'nolar badiiy tasvirni jonli, obrazli va ta'sirchan bo'ishini ta'minlaydi. **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. A.G'ulomov. O'zbek tilida urg'u –T.: 1947. – B.3.
2. B.O'rinboev. A.G'ulomov va o'zbek aksentologiyasi masalalari. Ayub G'ulomov va o'zbek tilshunosligi. –T.: 2004. –B.12.
3. E.Qilichev. Uslubiy ma'no va uning ifodalanishi. Ilm va adab jabhasida 60 yil. To'plam Buxoro. 2004; Karimov.S O'zbek tilining badiiy uslubi. D.D.A, -T.: 1993; B.Yo'ldoshev. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. Turkiy tillarning fonologiyasi va morfonologiyasining dolzarb masalalari. To'plam. Nukus. 2005. –B.46-50.
4. A.Nurmanov. O'zbek tilshunosligi tarixi. –T.: 2002. –B.175.
5. A.Mahmudov. Tilda singarmonizm, urg'u va tovush sistemasining o'zaro munosabati// O'zbek tili va adabiyoti, 1980 N4, -B.46-49.
6. Н.К.Дмитриев. Строй турецкого языка. –Л. 1939. –С.16.
7. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi. 1985. -B.112.
8. M.Mirtojiyev. O'zbek tili fonetikasi. –T.: 1991. –B.51.

UO'K 81'25

TARJIMA JARAYONIGA DISKURSIV YONDASHUV XUSUSIDA

N.A. Haydarova, doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ma'lumki, tarjima jarayoni shunchaki leksik birliklarni va grammatik tuzilmalarni bir tildan boshqa tilga o'tkazishdan tashqari yanada keng qamrovli murakkab jarayondir. Bugun zamonaviy tarjimashunoslik sohasini diskurs atamasisiz tasavvur qilish mushkul